O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA’LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI
MADANIYAT VAZIRLIGI
O‘ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI HUZURIDAGI
BOTIR ZOKIROV NOMIDAGI MILLIY ESTRADA SAN’ATI INSTITUTI

"TASDIQLAYMAN"
O‘zDK huzuridagi Botir Zokirov
nomidagi Milliy estrada san’ati
instituti rektori

______________ A.Mansurov

202 4 yil "30" avgust

*Ro‘yxatga olindi: № MD 70211401-1.02*

# MUTAXASSISLIK FANLARNI O‘QITISH METODIKASI

## FANINING O‘QUV DASTURI

**Bilim sohasi:** 200 000 - San’at va gumanitar fanlar

**Ta’lim sohasi:** 210 000 - San’at

**Mutaxassislik:** 70211401– Vokal san’ati: estrada xonandaligi

TOSHKENT – 2024

| Fan/modul kodi<br>MFM1103 | | O'quv yili<br>2024-2025 | Semestr<br>3 | ECTS-Kreditlar<br>3 | |
|---|---|---|---|---|---|
| Fan/modul turi<br>Majburiy | | Ta'lim tili<br>O'zbek/rus | | Haftadagi dars soatlari<br>2 | |
| 1. | Fanning nomi | Auditoriya mashg'ulotlari (soat) | | Mustaqil ta'lim (soat) | Jami yuklama (soat) |
| | Mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi | 30 | | 60 | 90 |
| 2. | **I. Fanning mazmuni** | | | | |

"Mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi" fani magistratura mutaxassisligi bo'yicha tahsil oladigan talabalar uchun mo'ljallangan. Dastur Malaka talablariga binoan san'at sohasida magistrlar tayyorlash o'quv rejalari asosida tuzilgan va undan ishchi o'quv dasturlarini tuzishda foydalaniladi.

Fanning asosiy maqsadi – magistr talabalarni pedagogika mahorati bo'yica har tomonlama keng bilim doirasiga ega bo'lgan, mustaqil fikr yuritadigan yuqori malakali o'qituvchi-mutaxassislar darajasida tayyorlashdir. Ular estrada vokal pedagogikasi sohasidagi yangi texnologiyalar va dasturlarni egallash va qo'llashdan iboratdir.

"Mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi" fani Professional Estrada vokal pedagoglarini shakillanishi uchun zarur nazariy –ilmiy fandir. U estrada xonadaligida o'qituvchisi sifatida mustaqil kasbiy ish faoliyat ko'rsatadigan, yuqori malakali mahoratga ega xonanda-pedagoglarni tayyorlash uchun muhim o'rin tutadi.

Fanni o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - talabalar estrada xonandaligi ta'lim yo'nalishi bo'yicha Mutaxassislik fanlaridan pedagogik bilimlarga ega bo'lganliklarini namoyish metodikasi tishlaridan iboratdir.

"Mutaxassislik fanlarni o'qitish" kursida magistratura talabalari 1. Ixtisoslik (Estrada yakka xonandaligi) 2. Estrada xonandaligi ansambli; 3. Vokal improvizatsiyasi kabi fanlaridan dars berish metodikasini o'rganadilar. Ushbu fanni o'rganishda ta'limning nazariy asoslari va ularning amaliyotda qo'llanishi, atoqli estrada ijrochiligi pedagoglarini tajribalari bilan tanishtiriladi. Fanni o'zlashtirish jarayonida muhim o'rinda estrada xonandaligiga oid adabiyotlar, o'quv uslubiy qo'llanmalardan

foydalaniladi. Talabalar estrada vokal ijrochilik maktabining zamonaviy pedagogik texnologiyalari va malakaviy uslublari bilan tanishadilar. Amaliy darslarda esa zarur ko'nikmalar mustaxkamlanadi.

Estrada xonandalik mahorati fani ishchi o'quv rejasida ko'rsatilgan semestrlarda o'qitiladi. Ijodiy jarayonda, dasturni amalga oshirish uchun yetarli bilim va ko'nikmalarga ega bo'lishlik talab etiladi.

## II. Asosiy qism (ma'ruza mashg'ulotlari)
## II.I Fan tarkibiga quyidagi mavzular kiradi:

## III-SEMESTR

### Kirish

"Mutaxassislik fanlarni o'qitish metodikasi" - fanning mazmuni, tushunchasi, asosiy ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar, ulardan unumli foydalanish yuzasidan uslubiy tavsiyalar.

### 1-mavzu. Vokal pedagogikasining asosiy prinsiplari

"Estrada xonandaligiga o'qitish uslubiyoti" fanini o'rganishda ta'limning nazariy asoslari va ularning amaliyotda qo'llanishi. Fanning maqsad va vazifalari. Vokal pedagogikasining asosiy prinsiplari. Musiqa maktabi, kollej va estrada institutida ixtisoslik fanining dasturiy meyyorlari bilan tanishish, atoqli estrada ijrochiligi pedagoglarini tajribalari bilan tanishish. Vokal pedagogikasida psixologiyaning ahamiyati.

### 2-mavzu: Estrada yakka xonandaligi sinfida darslar o'tish jarayoning asosiy bosqichlari va vazifalari

Estrada yakka xonandaligi sinfida "Ustoz-shogird" maktabi. Ovoz sozlash mashqlari ustida ishlash. Estrada yakka kuylash ko'nikmalarini egallash - Xonandalik nafas olish ko'nikmasi; Tirgakli tovushni his qilish; Aniq talaffuz; Sof intonatsiya; stilistik va artistik mahorati ustida ishlash. Estrada xonandaligi sinfida dasturning ahamiyati. Asarlarni to'g'ri tanlash va tahlil qilish; Jo'rnavoz bilan ishlash mezonlari.

**3-mavzu. Vokal pedagogikasida ovoz sozlash prinsiplari**

Ovozlar klassifikatsiyasi. Ovoz mashqlarining ahamiyati va vokal pedagogikasidagi o'rni. Ovoz mashqlarining turlari: legato, stakkato, arpedjio, kantilena, artikulyatsiya, kompleks mashqlar, estrada va jaz yo'nalishidagi mashqlar, nutq mashqlari, nafasni faollashtirish, tirgakli nafas olish mashqlari. Ovoz mashqlarining estrada xonandasi tarbiyasidagi o'rni.

**4-mavzu. Estrada xonandaligida vokal texnikasi va ijro uslublari**

Vokal texnikasi va ijro uslublari estrada xonandaligida; Soul, kantilena, staccato, rechitativ, sket, bluy-odl, subton, drayv, qochirim va nola ijro texnikasi tushunchalari. Kuylash jarayonida yuzaga keladigan kamchiliklar va ularni bartaraf etish yo'llari; xonandaning gigienasi va rejimi; ovoz apparatini rivojlantirish; badiy obraz va Estrada xonandaligida uning ahamiyati.

**5-mavzu. "Xonandalik ansambli" fani pedagogikasi**

"Xonandalik ansambli" fani pedagogikasi – fanning mazmuni, tushunchasi, asosiy ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar, ulardan unumli foydalanish yuzasidan uslubiy tavsiyalar.

**6-mavzu. Ansambl turlarini tuzish va ishlash**

Ansamblda ovoz mashqlari. Unison mashqlar, tersiya, kvarta, kvinta, oktava intervallari mashqlari. Eshitish qobiliyatini rivojlantirish mashqlari.

Bek-vokal, duet, trio, kvartet tarkibidagi ijro xususiyatlari. Chet tillardagi asarlarda sof talaffuz.

**7-mavzu. Ijro dasturlarini tuzish**

Jahon va O'zbekiston kompozitorlari tomonidan yaratilgan turli janr va yo'nalishlardagi asarlardan ijro dasturini tuzish. Konsertlar, attestatsiyalar dasturiga kiritish. Ilmiy-ijodiy yo'nalishda tadqiqiy faoliyat olib borish. Yakkaxon ijro dasturiga amaliy tayyorgarlik ko'rish.

**8-mavzu. "Vokal improvizatsiyasi pedagogikasi"**

"Vokal improvizatsiyasi pedagogikasi" – fanning mazmuni, tushunchasi, asosiy ilmiy tadqiqotlar va adabiyotlar, ulardan unumli foydalanish yuzasidan uslubiy tavsiyalar. Melodik va garmonik uslubda improvizatsiya qilish

**9-mavzu. Pedagogik va konsert faoliyatida repertuar tanlash negizi**

Pedagogik faoliyatida o'quv dasturlari bilan ishlash uslubi. Badiiy asarlarni ijrosi bo'yicha uslubiy tavsiyalar. Talabaga to'g'ri dastur tanlash. Dastur bilan ishlash. O'zbek estrada repertuari bo'yicha yangi o'quv qo'llanmalar va darsliklardan foydalanish. Zamonaviy o'zbek estrada xonandalari repertuaridagi vatanparvarlik ruhidagi qo'shiqlar. Vatanparvarlik ruhidagi qo'shiqlarning nota matnlari va adabiyotlari.

**10-mavzu. Milliy va zamonaviy estrada stilistik yo'nalishlari**

Estrada xonandaligida stilistik yo'nalish va oqimlar. Estrada xonandaligiga jazning ta'siri. Zamonaviy estrada - jaz vokal janrlari. Romans, ashula va balladalar, ularning tasnifi.

**Oraliq nazorat va Yakuniy nazorat.**

Har semestrda o'zlashtiriladi, oraliq va yakuniy nazoratda kafedrada topshiriladi. Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, yakuniy, joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha og'zaki javob imtihon varaqalari topshirish.

**Amaliy mashg'ulotlar bo'yicha ko'rsatma va tavsiyalar**

Amaliy mashg'ulotlar rahbar boshchiligida auditoriyada o'tiladi. Unda talabalar bilan quyidagi tarzda ish olib boriladi:

–o'quv adabiyotlari bilan tanishish va muhokama qilish;

– yangi musiqiy texnik vositalar va texnologiyalarni o'rganish;

–Estrada vokal pedagogika maktablari bilan tanishish;

–Ochiq darslarni tahlil qilish;

–O'quv dasturlarini o'rganish;

–vokal mashqlarini o'rganish va repetitsiyalar orqali mustahkamlash;
–Improvizatsiya uslublarini amaliy darslarda o'rganish va mustahkamlash.

Guruhli amaliy mashg'ulotlar fortepiano jo'rligida, multimedia qurilmalari bilan jihozlangan auditoriyada bir guruhga bir professor-o'qituvchi tomonidan o'tkazilishi zarur. Mashg'ulotlarda faol va interaktiv usullar yordamida o'tilishi, mos ravishda munosib pedagogik va axborot texnologiyalar qo'llanilishi maqsadga muvofiq.

### III. Mustaqil ta'limni tashkil etishning shakl va mazmuni

Mustaqil ta'limni tashkil etishda mazkur fanning xususiyatlarini hisobga olgan holda quyidagi shakllardan foydalanish mumkin:

- darslik, o'quv qo'llanma, maxsus yoki ilmiy adabiyotlar (monografiyalar, maqolalar) bo'yicha fanlar boblari va mavzularini o'rganish;
- tarqatma materiallar bo'yicha ma'ruzalar qismini o'zlashtirish;
- avtomatlashtirilgan o'rgatuvchi nazorat qiluvchi tizimlar bilan ishlash;
- yangi musiqiy texnik vositalar va texnologiyalarni o'rganish;
- talabaning ilmiy tekshirish (ijodiy) ishlarini (TITI) bajarish bilan bog'liq bo'lgan fanlar bo'limlari yoki mavzularini chuqur o'rganish;
- faol o'qitish uslubidan foydalaniladigan o'quv mashg'ulotlari (ishbilar o'yinlar, diskussiyalar, seminarlar, kollokviumlar va b.).

Mustaqil ta'limni tashkil etishning mazmuni axborot-ta'lim resurslaridan, ta'lim muassasasida mavjud kutubxona, fonoteka va videoteka jamg'armasidan, repetitoriylardan, o'quv laboratoriyalari, ovoz yozuvi studiyalari, teleradiokompaniya kanallari va konsert zallaridan unumli foydalanishdan, bajarilgan ishlarning tahlilini bayon etishdan iboratdir. Mazkur fanning xususiyatlaridan kelib chiqib kasbiy mahoratni rivojlantirish va takomillashtirishga qaratilgan vazifalarni maqsadli amalga oshirish ham nazarda tutiladi.

### IV. Mustaqil ta'lim va mustaqil ishlar

Mustaqil ta'lim uchun tavsiya etiladigan mavzular:

1. o'quv adabiyotlari bilan tanishish va muhokama qilish;

| | |
|---|---|
| | 2. yangi musiqiy texnik vositalar va texnologiyalarni o'rganish;<br>3. Estrada vokal pedagogika maktablari bilan tanishish;<br>4. Ochiq darslarni tahlil qilish;<br>5. O'quv dasturlarini o'rganish;<br>6. vokal mashqlarini o'rganish va repetitsiyalar orqali mustahkamlash;<br>7. Improvizatsiya uslublarini amaliy darslarda o'rganish va mustahkamlash. |
| 3. | **V. Fan o'qitilishining natijalari (shakllangan kompetensiyalari)**<br><br>Fanni o'zlashtirish natijasida talaba:<br>– estrada va jaz vokal san'atining ilmiy asoslari;<br>– Estrada yakka xonandaligi fanining asosiy prinsiplari;<br>– Estrada xonandaligi ansamdli fanining asosiy prinsiplari;<br>– Vokal improvizatsiyasi fanining asosiy prinsiplari;<br>– jahon estrada xonandalarining ijro dasturlari haqida tasavvurga ega bo'lishi;<br>– estrada xonandaligi pedagogikasining nazariy asoslarini;<br>– o'qitish usullari va uslubiyotini;<br>– ovoz sozlash mashqlarini;<br>– estrada vokal musiqasi ifoda vositalarining interpretatsiya qonunlarini;<br>– melodik va garmonik uslubda improvizatsiya qilish<br>– estrada xonandaligi pedagogikasi kesimida ijrochilik ko'nikma va imkoniyatlarini kengaytirish;<br>– repertuar tanlash va tahlil qilishni bilishi va ulardan foydalana olishi;<br>– Ixtisoslik fanidan dars berish metodikasini ;<br>– Xonandalik ansambli fanidan dars berish metodikasini;<br>– Improvizatsiya fanidan dars berish metodikasini;<br>- estrada vokal pedagogikasi sohasidagi yangi texnologiyalar va dasturlarni qo'llash ko'nikmalariga ega bo'lishi kerak. |
| 4. | **VI. Ta'lim texnologiyalari va metodlari:**<br><br>• ma'ruzalar;<br>• interfaol keys-stadilar;<br>• seminarlar (mantiqiy fikrlash, tezkor savol-javoblar); |

| | |
|---|---|
| | • guruhlarda ishlash;<br>• taqdimotlarni qilish;<br>• individual loyihalar;<br>• guruhli loyihalar |
| 5. | **VII. Kreditlarni olish uchun talablar:**<br><br>Fanga oid nazariy va uslubiy tushunchalarni to'la o'zlashtirish, tahlil natijalarini to'g'ri aks ettira olish, o'rganilayotgan jarayonlar haqida mustaqil mushohada yuritish, yakuniy, joriy, oraliq nazorat shakllarida berilgan vazifa va topshiriqlarni bajarish, yakuniy nazorat bo'yicha og'zaki javob imtihon varaqalari topshirish. |
| 6. | **Asosiy adabiyotlar**<br><br>1. D.Amanullayeva. Estrada xonandaligi. Magistratura uchun darslik. – T., 2016.<br>2. D.Amanullayeva. Estrada xonandaligi. "Musiqa", T., 2015.<br>3. R.Islamova. Iskusstvo vokalnogo ansamblya (1-qism). OTM uchun o'quv qo'llanma. "Fan ziyosi", T., 2022. – 215 bet.<br>4. R.Islamova. O rasshirenii oblasti ispolzovaniya interaktivnix metodov i innovatsionnix obrazovatelnix texnologiy v distsipline "Iskusstvo vokalnogo ansamblya". Magistratura. 1-2 kurs. Magistratura uchun o'quv qo'llanma. "San'at", T., 2012. – 44 bet.<br>5. D.Amanullayeva. Pedagogik repertuarni o'rganish. O'quv qo'llanma. - 2018.<br>6. M.Orinbayeva. Estrada xonandaligiga o'qitish uslubiyoti. O'quv qo'llanma. "Navruz", T., 2021.<br>7. Norxo'jayev N. "Improvizatsiya". O'quv qo'llanma. T., 2005.<br>8. Bril. Prakticheskiy kurs djazovoy improvizatsii. M., 1988.<br><br>**Qo'shimcha adabiyotlar:**<br><br>1. R.Islamova. Vokalniy ansambl. – T., 2008.<br>2. D.Omonullayeva. Estrada xonandaligi. – Toshkent, 2007.<br>3. Y.Turayev, D.Amanullayeva. Nekotoriye voprosi prepodavaniya estradnogo peniya. O'quv qo'llanma. "O'zDK", T., 2004. – 24 bet.<br>4. Mirziyoyev Sh.M. Buyuk kelajagimizni mard va oliyjanob xalqimiz bilan birga quramiz. "O'zbekiston", T., 2017. - 488 b. |

| | |
|---|---|
| | 5. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni. 2022-2026 yillarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida. PF-60 son 28.01.2022 yil.<br><br>**Axborot manbaalari**<br><br>1. http://estrada-art.uz<br>2. http://www.youtube.com<br>3. http://library.konservatoriY.uz/<br>4. www.musiqa.uz<br>5. http://portasound.ru/music-search/musiqa-olami |
| 7. | Fan dasturi Oliy ta'lim yo'nalishlari va mutaxassislilari bo'yicha O'quv-uslubiy birlashmalar faoliyatini Muvofiqlashtiruvchi Kengashi 2024 yil "30" avgust -dagi 1 - sonli bayonnomasi bilan ma'qullangan |
| 8. | **Fan/modul uchun mas'ul:**<br>D.D.Amanullayeva – O'zR san'at arbobi, O'zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti "Estrada xonandaligi" kafedrasi mudiri, professor. |
| 9. | **Taqrizchilar:**<br>A.Ikramov – O'zbekiston Respublikasi san'at arbobi, professor, B.Zokirov nomidagi O'zbekiston milliy estrada simfonik orkestri badiiy rahbari va bosh dirijyori;<br><br>Yu.Turayev – O'zbekistonda xizmat ko'rsatgan artist, O'zDK huzuridagi B.Zokirov nomidagi Milliy estrada san'ati instituti "Estrada xonandaligi" kafedrasi professori. |